



TERMIZ IQTISODIYOT VA  
SERVIS UNIVERSITETI

# TISU ILMIY TADQIQOTLARI XABARNOMASI

ILMIY-USLUBIY JURNAL  
ISSN 2992-9016

№1/2026

**Muassis:**  
TERMIZ IQTISODIYOT VA  
SERVIS UNIVERSITETI

**TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi**

**Ilmiy-uslubiy jurnal**

**Bosh muharrir:**

Sattarov Abdusamat  
Umurqulovich

**Bosh muharrir o'rinbosari:**

Qobulov Eshbolta Atamuratovich

**Mas'ul kotib:**

Turayev Baxtiyor Ergashevich

**Dizayner:**

Meyliqulov Shahboz  
Xolmamatovich

**Jurnal bir yilda to'rt marotaba  
nashr etiladi**

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining 2023-yil 1-martdagi № 066379-raqamli guvohnomasi bilan ro'yxatga olingan va O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 8-maydagi 370/5-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan hamda iqtisodiyot fanlari bo'yicha dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal "Termiz Publishing center" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Bosishga ruxsat etildi:

22.12. 2025.

Qog'oz bichimi: 60x84 1/8

"Times New Roman" garnitirulasi.

Ofset bosma.

Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i: 11.

Adadi 100 nusxa.

Bahosi kelishilgan narxda.

Buyurtma № 4.

Jurnalning elektron shakli bilan

<https://scientific.tues.uz>

web saytida tanishish mumkin.

**Tahririyat manzili:**

Termiz sh., "Yulduz" MFY,  
"Ibn Sino" ko'chasi, 38B-uy.

## TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

Ixtisham Ul-Haq – i.f.d., prof. (Pokiston)

L. Narrada Gamage – i.f.d., prof. (Shri Lanka)

Maxmudov N.M. – i.f.d., prof.

Xudoyqulov S.K. – i.f.d., prof.

Pardayev J.M. – i.f.f.d., (PhD).

Absamatov A.E. – i.f.n., dots.

Eshkarayev S.Ch. – k.f.f.d. (PhD), dots.

Ruzmetov B. – i.f.d. prof.

Xudoyqulov X.X. – i.f.d. (DSc), prof.

Abdullayev I.S. – i.f.d., prof.

Xotamov O.Q. – i.f.d., prof.

Otamurodov Sh.N. – i.f.d. (DSc), dots.

Yarmatov Sh. Ch. - i.f.f.d. (PhD).

Mamadjanova T.A. – i.f.f.d. (PhD), dots.

Shodiyev A.A. – i.f.f.d. (PhD).

Jurayev X.A. – i.f.f.d. (PhD), dots.

Xakimov Z.I. – i.f.f.d. (PhD).

Amonov M.O. – i.f.f.d. (PhD).

Absamatov A.E. - i.f.f.d. (PhD).

Rahmatullayev B.Ch. – i.f.f.d. (PhD).

Namozov G'.Sh. – i.f.f.d. (PhD).

# MUNDARIJA

## **SH.E.BOBOMURATOVA**

O'zbekiston va uning chegara mamlakat hududlarida til siyosati.....4

## **D.MUQUMOVA**

Ja'far Muhammad Termiziyning "Mendagi Boysun" she'ri: lingvistik tahlil.....12

## **D.B.IBODULLAYEVA**

O'zbek va ingliz tillaridagi teatr atamalarining chog'ishtirma tahlili.....15

## **Z.M.AMIRKULOVA**

"Panoh" hikoyasida tarixiy voqelik va badiiy talqin uyg'unlashuvi.....18

## **M.A.MEYLIQULOVA**

O'quvchilarda adabiy nutqiy kompetensiyani rivojlantirish masalalari.....22

## **SH.A.DONAYEVA**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda 4K modelining ahamiyati.....25

## **G.E.TURAYEVA**

Texnologiyalashgan jamiyatda bo'lajak o'qituvchilarning axloqiy tarbiyasini shakllantirish .....28

## **M.X.XAYDAROVA**

Magistratura talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etish.....31

## **F.A.XAYITOVA**

O'quvchilarda kreativ o'qish madaniyatini shakllantirishning milliy va jahon tajribasi.....35

## **D.R.YUNUSOV, J.I.UMIROV**

Fanni o'qitishda interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish.....38

## **F.E.JOMONQULOVA, S.B.UZAKOVA**

Yoshlarni axborot xurujlaridan asrash, ularda axborot imunitetini shakllantirishda zamonaviy usullardan foydalanishning o'рни.....42

## **U.A.TASHBAYEVA**

Boshlang'ich sinflarda bolalar adabiyotini o'rgatishda mustaqil ta'lim topshiriqlaridan foydalanish metodikasi.....47

## **SH.T.TOSHOVA**

Talabalarda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari.....51

## **R.I.ESONOVA, N.M.SALOXITDINOVA**

Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni 4K modeli asosida tashkil etish metodikasi va baholash mexanizmlari.....54

## **G.Z.ERMATOVA, G.E.TURAYEVA**

Elektron resurslar asosida ona tili va o'qish savodxonligi fanlarini o'qitish samaradorligini oshirish usullari.....58

## **D.D.NORQUVATOVA, N.M.SALOXITDINOVA**

STEAM yondashuvining boshlang'ich matematika ta'limidagi ahamiyati.....65

## **M.O.ZARIPOVA, N.M.SALOXITDINOVA**

Zamonaviy ta'limda baholash tizimlarining transformatsiyasi va uning ta'lim sifatiga ta'siri.....68

## **M.A.NORBOSHEVA, N.ABDIYEVA**

Giperaktiv bolalar bilan olib boriladigan psixologik-pedagogik ishlar.....72

## **G'.A.MAMARAJABOV**

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda hunarmandchilikni rivojlantirishning huquqiy asoslari va amaliy tajriba.....76

## **T.J.YARMATOV, F.J. YARMATOV**

Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu Lug'atit Turk" asari etnofolklor manba.....80

## **SH.T.YAKUBOVA**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyat shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari.....83

## **N.B.RAUPOVA**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining milliy qadriyatlarga bo'lgan munosabatini shakllantirish metodikasi ("Qutadg'u bilig" va "Hibat ul-haqoyiq" dostonlari namunalari misolida).....86

## **M.SH.BURIYEVA**

The role of code-switching in Uzbekistan's diverse society: identity and cultural exchange.....91

## **Z.M.ALLAYEV**

Traditions of dream interpretations in linguoculturology.....96

## **Z.F.ERGASHEVA, G'.Y.SALOMOV**

Ona-tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi.....99

## **L.A.RAIMOV**

A comparative analysis of ai and human translation in advertising texts.....103

## **A.A.QARAQULOV**

Mengziyo Safarov qissalarida ona-tabiatning poetik manzarasi.....107

## **N.A.UMAROVA**

Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlar darslarida loyiha faoliyatini tashkil etish nazariyasi va metodikasi.....112

## **M.T.MENGNAROVA**

Ingliz va O'zbek tillaridagi rang komponentli maqollarda madaniy birliklarning ahamiyati.....116

## **I.B.JURAEV**

The effect of authentic materials on vocabulary acquisition in english classes.....120

## **D.A.BADALOV**

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda, klaster metodida yondashish.....126

## **F.J. YARMATOV, T.J. YARMATOV**

Dostonchilik an'analari shakllanishining tarixiy asoslari.....130

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
“Tarix” kafedrasini mudiri, tarix fanlari nomzodi, dotsent  
**Yarmatov Faxriddin Joylovovich**  
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti 2-bosqich magistranti  
**Yarmatov Turg'unjon Joylovovich**  
E-mail: turgun.yarmatov@gmail.com

## **DOSTONCHILIK AN'ANALARI SHAKLLANISHINING TARIXIY ASOSLARI**

### **ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada xalqimiz hayotida va turmush tarzida muhim ahamiyatga ega bo'lgan baxshichilik uning janrlari pandnoma, qahramonlik kabi xususiyatlari shuningdek, xalq baxshilarining tarixan jangchi bo'lganliklarini baxshilarning doston ijro etishlari, o'zbek marosim folklori bilan bog'liq ijro tiplarining har tomonlama o'rganilishi, bu borada olib borilgan maxsus tadqiqotlar haqida ma'lumot beriladi.

Tayanch so'zlar: V.M. Jirmunskiy, H.T. Zarifov, Ergash shoir, Fozil shoir, Po'lkhan shoir, Abdulla shoir, Xidir shoir, folklor, baxshi, doston, afsona, jangchi, qo'biz, do'mbira, dutor.

## **ИСТОРИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ КАРТИННЫХ ТРАДИЦИЙ**

### **АННОТАЦИЯ**

В данной статье представлена информация о важной роли бахши в жизни и быте нашего народа, о таких жанрах, как пандома и героизм, а также об историческом воинственном характере народных бахши, об эпических представлениях бахши, проведено всестороннее исследование видов представлений, связанных с узбекским ритуальным фольклором, и проведены специальные исследования в этой области.

Ключевые слова: В.М. Жирмунский, Х.Т. Зарифов, поэт Эргаш, поэт Фазиль, поэт Полкан, поэт Абдулла, поэт Хидыр, фольклор, бахши, эпос, легенда, воин, kobiz, домбира, дутор.

## **HISTORICAL FOUNDATIONS OF THE FORMATION OF PICTURE TRADITIONS**

### **ANNOTATION**

This article provides information about the important role of Bakhshi in the life and lifestyle of our people, its genres such as pandnoma and heroism, as well as the historical warrior nature of the folk Bakhshi, the epic performances of Bakhshi, a comprehensive study of the types of performances related to Uzbek ritual folklore, and special research conducted in this regard.

Key words: V.M. Zhirmunsky, H.T. Zarifov, poet Ergash, poet Fazil, poet Polkan, poet Abdulla, poet Khidyr, folklore, bakhshi, epos, legend, voyn, kobiz, dombira, dutor.

### **KIRISH**

Xalqimizning turmush tarzini yuksalishida xalq og'zaki ijodining ahamiyati katta bo'lib, asrlar davomida boy ma'naviy e'tiqodga ega meros to'planib, yosh avlod tarbiyasiga munosib hissa qo'shib kelmoqda. Xalq og'zaki ijodining muhim yo'nalishi bo'lgan dostonlar juda chuqur tarixiy ildizlarga ega bo'lib, uzoq asrlar davomida yaratilib kelingan va turli ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda kuylangan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Mazkur tadqiqot jarayonida asosan M. Bakirovning Trud – materialnaya osnova drevneyshey poezii //Genezis i drevneyshiye formy obshchetyurkskoy poezii maqolasida eng qadimgi she'riyatning

asosi mehnat bo'lib, u moddiy va ma'naviy faoliyat hali ajralmagan ibtidoiy davrlarda paydo bo'lgan deydi va mehnat poeziyasi rivojini uch bosqichga bo'ladi. B. Sarimsoqovning “Mehnat qo'shiqlari O'zbek folklori ocherklari” nomli kitobning birinchi jildida mehnat qo'shiqlarida har bir mehnat turi, kasb-hunar pir (patron) lariga sig'inish motivlari haqida tarixiy ma'lumot beriladi.

**Tahlil va natijalar.** Ilk dostonlar Yunonistonda paydo bo'ldi, ularda afsonaviy qahramonlarning jasorati, xudolarning karomati haqida kuylangan. Gomerning “Iliada”, “Odiseya”, Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma” Aligyeri Dante (Dante Alighieri 1265–1321) ning “Ilohiy

komediya”[1] (1307– 1321-yillar oralig’ida yozilib, 1472-yili nashr etilgan va uch qismdan iborat: birinchisi “Do’zax”, ikkinchisi “Poklanish”, ya’ni “A’rof” ham deyiladi, bu do’zax bilan jannat oralig’i, bilish va yaxshilik hamdir, uchinchisi “Jannat”) asarlari doston janrining qadimgi namunalari. Dostonlar, o’z mohiyatiga ko’ra, qahramonlik (“Alpomish”, “Farhod va Shirin”), s a r g u z a s h t - d e t e k t i v (“Sab’ai sayyor»), ishqiy-romantik (“Tohir va Zuhra”, “Layli va Majnun”), jangnoma (“Yusuf va Ahmad”, “Saddi Iskandariy”), tarixiy- memuar (“Shayboniynoma”, “Jizzax qo’zg’oloni”), f a l s a f i y (“H a y r a t u l - a b r o r”), fantastik - allegorik (“Lison ut- tayr”), didatik (“Qutadg’u bilig”) turga bo’linadi. Qahramonlik dostonlarida xalq, jamiyat takdiri tasvirlansa, ishqiy-romantik dostonlarda oshiq-ma’shuqlarning sarguzashti bosh o’rinda turadi. Tarixiy- memuar yoxud tarixiy-biografik dostonlarda biror tarixiy shaxslar ramziylashtirilib, bo’rttirib tasvirlanadi. Umuman, dostonlarda ideallashtirish, mubolag’ali tasvir ustun bo’ladi, ularda turli afsonalar, asotirlar, hikoyatlar, dev, pari, Xizr, ajdar, ajab-tovur otlar (“Alpomish”dagi Boychibor), sehr-jodu ko’p ishtirok etadi. Xalq dostonlari baxshi, dostonchi va xalq shoirlari tomonidan dutor, do’mbira va boshqa xalq cholg’u asboblari jo’rligida ijro etiladi. Folkloridagi dostonlar bilan yozma adabiyotdagi dostonlar shakl-shamoyili jihatidan bir xil ko’rinishda bo’lsa-da, yozma adabiyotdagi dostonlar yozuvchining dunyoni o’ziga xos tarzda idrok etishi, baholashi va o’z fikr-g’oyalari, orzu-armonlarini ifodalash tarzi, usuli, uslubida farqlanadi. Garchand, Navoiyning aksar dostonlari, jumladan, “Layli va Majnun”, “Saddi Iskandariy” asarlari asosida folklor mavzui turgan bo’lsa-da, shoir ularni o’z estetik qarashlari va badiiy niyatidan kelib chiqib, tubdan qayta yaratgan. Dostonlar mazmunan qahramonlik, jangnoma, tarixiy, romantik, maishiy turmush yo’nalishlarida bo’lgan. Dostonlarni ijro etishda baxshi shoirlar muhim o’rin tutgan.

Baxshi so’zining ma’nosi mo’g’ulcha va buryatcha baxsha, bag’sha – ustod, ma’rifatchi; sanskritcha bhikshu – qalandar, darvesh degan ma’noni beradi deb izohlanadi. O’zbekistonda qo’shiq va dostonlarni yoddan kuylovchi, aytuvchi, avloddan- avlodga yetkazuvchi san’atkor. Baxshi so’zi ba’zan shaman ma’nosida ham qo’llanadi, umuman, dostonchilar, doston aytuvchilarni esa yuzboshi, soqi, sannovchi, jirov deb ataydilar.

Baxshilar, asosan, ikki toifaga – ijrochi va ijodkor baxshilarga bo’linadi. Ijrochi baxshilar, asosan, ustozdan o’rgangan dostonlarni juz’iy o’zgarishlar bilan aynan kuylasalar, ijodkor baxshilar og’zaki epik an’ana asosida yangi dostonlar ham yaratadilar. Bunday baxshilar shoir baxshilar deb ham yuritiladi, masalan Ergash shoir, Fozil shoir, Po’lkan shoir, Abdulla shoir, Xidir shoir va boshqalar. Baxshilar doston va qo’shiqlarni qo’biz, do’mbira, dutor kabi sozlar jo’rligida kuylaydi. Xorazm baxshilari dostonlarni asosan, dutor, qisman tor bilan ijro etadilar, ularga g’ijjak va bo’lamonda sozchilar jo’r bo’ladi. Doston kuylash, shogird yetishtirishda qat’iy tartib, qonun-qoidalarga rioya qilinadi. Mo’g’ullar istilosi davrida budda dinidagi qalandarlarini, uyg’ur alifbosi asosida turli hujjatlar tuzuvchi idora xodimlarini, mo’g’ullarda jarrohlarni, Chig’atoy ulusi, Oltin O’rda, Qozon va Qrim xonliklarida kotiblarni, Bobiriylar davlatidagi harbiy qismlarning hisob-kitob ishlarini olib boruvchi va ularga maosh to’lovchi yirik amaldorlarni, Buxoro amirligida ma’muriy binolar qurishda mablag’ (sarf-xarajat) hisobini olib boruvchi kishilarni, turkmanlarda urug’ oqsoqollarini ham baxshilar deb ataganlar[2].

Zamonaviy poetika nuqtayi nazaridan doston va terma ijodkorlarining tiplari: 1) professional bo’lmagan baxshilari; 2) professional baxshilar, ayni paytda, professional baxshilarning o’zlari ham ikki tipga: b) termachi baxshilar; 3) ijodkor shoira-xalfalar; 4) ijrochi sozanda-xalfalar; 5) dostonlarni soz va kuysiz qiroat bilan o’qib ettiruvchi xalfalardan iborat[3].

Professional va havaskor xalq baxshilari, xalfalar repertuaridagi lirik va liro-epik turga mansub, o’ziga xos poetik tizimgi, vazifalarga ega bo’lgan, marosimiy va nomarosimiy xarakterdagi, musiqa (ohang, kuylash) bilan munosabati barqaror 4 misradan to 150-200, ba’zan undan ham ortiq misralardan tashkil topgan xalq qo’shiqlari termalar deyiladi. T. Mirzayev ta’biri bilan aytganda, asrlar bo’yi dostonchilik davomiyligini ta’minlab kelgan bu janrning genezisi, rivoji, kelgusidagi taqdiri, eng avvalo, professional xalq ijodchilari faoliyati bilan bog’liq va ularning tiplarini tarixiy hamda zamonaviy poetika nuqtayi nazardan o’rganish mumkin[4].

Jumladan, M. Bakirov eng qadimgi she’riyatning asosi mehnat bo’lib, u moddiy va ma’naviy faoliyat hali ajralmagan ibtidoiy davrlarda paydo bo’lgan deydi va mehnat poeziyasi rivojini uch

bosqichga bo'ladi[5]. B. Sarimsoqov ham mehnat qo'shiqlari taraqqiyotini uch bosqichga bo'lib, birinchi bosqichga oid ilk namunalari haqida shunday deb yozadi: "Kishilar ularni mehnat qurollariga so'zning magik ta'sir ko'rsatish, mehnat jarayonida bir xil ritmni saqlab turish va shu yo'l bilan mehnat qiluvchilarning charchog'ini unutishga, bardam ruh bilan undash maqsadida kuylaganlar"[6].

Bu ko'chirmadagi "so'zning magik ta'sir ko'rsatish" i birikmasiga asoslanib taxmin qilish mumkinki, turli harakatlar bilan kuylanadigan, bir xil ritmga ega bo'lgan ilk mehnat qo'shiqlari ibtidoiy odamlar inonchlarida ruhlar saylagan kishilargina, ya'ni maglargini kuylay olganlar va bu davrda shomonlik hali to'la shakllanmay, o'sha maglar xalq dostonchilarining ham, shomonlarining ham ilk tipi bo'lgan. Xalq baxshilarining, demakki, termachilarining ham birinchi tarixiy tipi ilk mehnat qo'shiqlarining ijrochisi maglar bo'lgan deyish mumkin. Shartli ravishda maglar poeziyasi deb atash mumkin bo'lgan bu davrda she'riyat asosan magik-maishiy vazifani bajargan.

Mehnat qo'shiqlari rivojining ikkinchi bosqichi haqida B. Sarimsoqov shunday deb yozadi: "Bu bosqich mehnat taqsimotining yuzaga kelishi va mehnat turlarining har biriga oid qo'shiqlarning yaratilishi bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda yuzaga kelgan mehnat qo'shiqlarida har bir mehnat turi, kasb-hunar pir (patron) lariga sig'inish motivlari yuzaga kelgan"[7]. Etnografik adabiyotlardagi ma'lumotlarga ko'ra, mifologik tafakkurda kishilar tabiatidagi har bir narsa va hodisaning homiy ruhi bo'lishiga juda qadimdan ishonganlar hamda bu narsa-hodisalar o'sha ruhlarning ehsoni deb bilganlar. Ularga atab qurbonlar qilganlar. O'zlaridagi biror kasbga salohiyatni va mahoratni o'sha ruhlar tufayli deb bilganlar[8]. Keyinchalik bu ishonch turli kasblarga ko'chgan, ya'ni kishilari har bir kasb-hunarning hmiy ruhi, piri borligiga ishonganlar. O'zbek baxshilari e'tirof etgan Mulla G'oyib, Oshiq Oydinlar dostonchilarning ana shunday pirlaridandir.

O'zbek dostonchilari repertuarining doston va terma bilan cheklanganini ham bir jihatdan ana shu homiylik bilan izohlash mumkin. "Baxshilar, - deydi To'ra Mirzayev, - terma va doston boshqa janrlardagi asarlardan (ertak, qo'shiq, latifa va shu kabilardan) juda ko'p namunalar bilsalar ham, ularni aytmaganlar"[9]. Tabiiyki, nimaga degan savol tug'iladi. Bu savolga katta

xalq baxshilari hamma aytishi mumkin bo'lgan ertak, qo'shiq, latifa aytishni o'zlariga munosib ko'rmagan, deb sodda javob berish mumkin. Ammo, bizningcha, qaysidir pirga sig'ingan, ustozdan fотиha olgan dostonchi uchun qo'shiq, ertak aytish an'anaga ko'ra taqiqlangan. U bu bilan pirlarni ranjitib qo'yishi mumkin, deb tasavvur qilingan. Xalq jodida ustozdan fотиha olish esa dostonchi va shomongacha munosib. Shuning uchun bo'lsa kerak, qanchalik mohir bo'lmasin, o'zbek folklorida biror etrakchi yoki qo'shiqchining ustozdan fотиha olgani haqida ma'lumotlar uchramaydi.

Dunyodagi deyarli barcha yirik eposlar ijrochilari, professional xalq ijodchilari o'zlaridagi ijod salohiyati doimo g'ayritabiiy izohlab kelganlar. H. Zarifov va T. Mirzayevlarning xalq baxshilaridan ko'plab eshitislaricha, go'yo ularda avval hech qanday ijod iqtidori bo'lmagan. Ular bir kuni biror daraxt tagi yoki qirmi, g'ordami uxlab qolib tush ko'rishgan. Tushlarida bir mo'ysafid ularga do'mbira berib kuylashni bu yurgan. Uyg'onib qarasalarki, qo'llarida do'mbira. O'z-o'zidan kuylab dostonchi bo'lib ketishgan[10]. Bu mo'ysafid asoslari mifologik tafakkurga borib bog'lanadigan homiy ruhning o'zidir. V.M. Jirmunskiy "Kuychining iqtidori haqida afsona" maqolasida birinchi anglo-saks shoiri keksayib qolgan Kedmon ham tushida bir kishini ko'rgach, kuylash iqtidoriga ega bo'lgani haqida yozadi. Go'yo uning tushiga kirgan kishi Xudoning vakili bo'lgan emish. U shoirlik, dostonchilik iqtidorini Xudo, ruhlar dunyosi bilan bog'lash tasavvurlari Sharqda ham, G'arbda ham mavjudligini izohlab, shunday deydi: "Bu afsonaning asosida yotuvchi tasavvur jamiyat va ijtimoiy g'oya taraqqiyotining ma'lum bir bosqichida juda keng tarqalgan. Shu sababli dostonchilarning iqtidori haqidagi afsonalar bir-biriga o'xshash shaklda o'zaro hech qanday madaniy aloqalarda va "ta'sirlarda" bo'lmagan xalqlarda ham uchraydi"[11].

Bunday afsonalar genezisi bevosita butun insoniyat uchun xos bo'lgan mifologik tafakkur hukmron bo'lgan davrlar bilan bog'liq va uning izlari bizning davrimizgacha yetib kelgan. Markaziy Osiyo xalqlari, xususan, o'zbek dostonchilari tiplari haqida yirik tadqiqotlar olib borgan ko'rgina olimlar, jumladan, V.M. Jirmunskiy, H.T. Zarifov, T. Mirzayevlar dostonchilarning baxshi-shoirlardan avvalgi tipi ham shoir, ham shomon bo'lgani, baxshi so'zi hozir ham O'zbekistonning ayrim joylarida

shomon ma'nosini anglatishi haqida juda ko'p yozganlar. Jumladan, T. Mirzayev shunday deydi: "O'tmishda baxshi so'zining ishlatilish doirasi nihoyatda keng bo'lgan. Bu so'z dostonchi va shaman ma'nolaridan tashqari, turli-tuman vazifalarni bajaruvchi shaxslarga nisbatan ham (kasb yoki unvonni bildiruvchi so'z sifatida) qo'llanilgan. Hozirgi kunda o'zbek folklorshunosligida faqat dostonchi ma'nosida qo'llaniladi"[12].

O'zbek marosim folklorini maxsus o'rganagan B. Sarimsoqov esa so'zning magik qudratiga asoslangan folklor janrlarining professional ijrochilarini parixon, shaman, badikxon va kinnachilar tiplariga ajratadi: xalq inonchlariga ko'ra, ular homiy ruhlar tomonidan tanlanadilar. Ular ham marosim o'tkazib, qon chiqarib, ustoz baxshi yoki kinnachilardan fotiha oladilar[13]. Bizningcha, barcha marosim folklori janrlarining ijodkorlari va ijrochilari tarixan xalq dostonchilari bilan bog'liq bo'lib, kinnachi, badikchi kabilar termachi, havaskor baxshilarning ajdodlari bo'lgani va ularning poeziyasi xalq termalariga juda yaqin turadi. Doston va termalar kabi bu poeziya ham faqat professionallar tomonidan ijro etiladi. Parixon, kinnachi, badikchilar repertuaridagi asarlarning termalardan farqi shundaki, ularning matnlari nisbatan juda barqaror va ijrochilari ham taraqqiyotning keyingi davrlarida, asosan, xotin-qizlardan iborat bo'lib qolgan.

"O'zbek marosim folklori bilan bog'liq ijrochi tiplarini har tomonlama o'rganish maxsus tadqiqotlarni talab qiladi. Bizning nazarimizda, bu narsa folklorining boshqa janrlariga aloqador ijodkorlar va ijrochilar (masalan, ertakchi va dostonchilar) faoliyatini o'rganishda ham muhim ochqich vazifasini o'taydi"[14], - deb yozadi B. Sarimsoqov. Dostonchilik va shomonlik, dostonchi va shomon poeziyasi, haqiqatan ham, maxsus tadqiqotini talab qiladi. Bu yerda ilmiy taxmin sifatida shuni aytishimiz mumkinki, dostonchi, termachi va shomon poeziyasining genetik asoslari bor. XX asrda ham ko'pgina dostonchilarning tasavvurlarida parilari bo'lgan va ular ateizm hukmron bo'lib, dindorlar ta'qib qilingan 30-yillarda bu inonchlarini yozib oluvchilardan sir tutganlar hamda yashirin tarzda bo'lsa-da, ham shoirlilik, ham shomonlik xislatlarini saqlab qolganlar. Fikrimizning isboti sifatida Ergash Jumanbul o'g'lining ukasi Abduxalilga Tog'aybekning ko'zi tegdi deb (ko'z magiyasi) vafot etganiga ishongani, Hodi

Zarifovning izohiga ko'ra tabiblik ham qilgani haqidagi ma'lumotlarni keltirish mumkin[15].

Dostonchilikning shomonlik bilan bog'liq yana bir jihati, ularning kechalari tonggacha aytilgani, shomon marosimlarining odatda kechalari o'tkazilganida ko'zga tashlanadi. Chunki xalq inonchiga ko'ra kechalari yovuz ruhlar avj oladi. Ertak va doston ijrosi esa ularni odamlarga yaqinlashtirmaydi. Masalan, Islom shoirning kunduzlari doston aytishni istamagani haqida uning qizi M. Islomova shunday xotirlaydi: "Kotiblardan birortasi otamdan nimadir yozib olayotgan bo'lar, bir mahal otam taqqa to'xtab, ijod jarayonini u yoki bu mavzudagi suhbatga aylantirib yuborar yoki biror yumush bilan andarmon bo'lib ketardi. Shunda kotibning ko'ngli to'lmay:

- Otaxon, shu endi chala qolmasin, oxiriga yetkazib qo'yaylik, degani – degan edi. Otam esa:

- Yo'q, bolam, hozir parilarim (ta'kid bizniki – I.T.) kelmay, ruxsat bermayotirlar, - deya kulib qo'yar, bundan o'zgalarning ham dili ravshan tortib, ko'ngillari to'lardi"[16].

Shoironing qizi parilarimni ilhom parisi degani bo'lsa kerak-da, deb juda sodda izohlaydi. Holbuki, mashhur etnograf J. Frezer shunday deb yozadi: "Ilhomning ilohiyligiga ishonch butun jahonda bor. Odamlar ayrim kishilar vaqti-vaqti bilan ruhlar yoki ilohalar tomonidan muhtalolikka yo'liqishlari mumkin deb hisoblaydilar"[17]. Dostonchilar, umuman dunyodagi barcha xalqlarning yirik epik asarlar ijodchilari va ijrochilari ularning o'zlari va kishilar tasavvurida ana shunday muhtalolikka yo'liqqan maglar va shomonlarning keyingi tiplaridir. Ushbu fikrlarga asoslanib, xalq dostonchi – termachilarining ikkinchi tarixiy tipi dostonchi-shomonlar bo'lgan, deyishimiz mumkin. Ijodkorlarning bu tipi davrida xalq poeziyasi magik-maishiy bilan bir qatorda, badiiy-estetik vazifaga baravar ega bo'lgan.

Xalq baxshilari, termachilarining tarixiy tiplaridanyana birijangchi va baxshiijodkorlardir. V.M. Jirmunskiyning "Kuychining iqtidori haqida afsona"[18] maqolasi hahon tarixida terma kabi asarlarning kuylanishi, baxshilarning ijodi haqidagi qarashlar, tarixan ularning ham kuychi, ham jangchi bo'lganligi tipologik hodisa ekanligini isbotlab beradi. Olim xalq professional kuychilari haqidagi afsona va qarashlarni Sharq va G'arb misolida tahlil qilib, shunday xulosaga keladi: "Bunday misollar munosabati bilan aytish mumkinki, jang oldidan xalq baxshilari

yoki drujina kuychilari tomonidan ajdodlarning buyuk jasratlari haqidagi qahramonlik qo'shiqlarini kuyushlari dastlab jangchilarni nafaqat jangovar qahramonliklarga chorlash, balki yovvoyi xalqlarning jangovar-ovchilik qo'shiq-raqslaridek magik marosim xarakteriga ham ega bo'lgan"[19]. Shu o'rinda Yunoniston va rimdagi kabi qadimgi Xitoyda ham eng kuchli shoirlarning ajoyib jangchilar ham bo'lishganini qayd etib o'tmoqchimiz[20].

Xalq baxshilarining ilk vakillari tarixan ham kuychi, ham jangchi, ham shomon bo'lganliklarining badiiy ifodasi o'zbek dostonlarining ko'pchiligida saqlanib qolgan. Masalan, "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonida Soqibulbul Go'ro'g'lining pirlar tomonidan tayinlangan ham ustoz, ham sayisi bo'ladi. Shu bilan birga, u sozanda, xonanda, ya'ni baxshi hamdir. U sinkretik kuychining dostonidagi obrazi bo'lib, bevosita mifologik dunyoqarash bilan bog'lanadi. Demak, u Go'ro'g'liga jang qilishni ham, kuyushni ham o'rgangan degan xulosa chiqadi[21]. M. Qodirov Go'ro'g'li dostonlaridagi Soqibulbul obrazining arvoq qiyofasiga kira olishini ta'kidlab: "Soqibulbul Po'ltkan shoir ijodida ham sozanda, ham xonanda, ham shoir, ham baxshi, ham askiyachi, ham masxaraboz sifatida gavdalanadi. Bizningcha, Po'ltkan shoir dostonlarida yaratilgan Soqibulbul san'atkorning afsonaviy epik obrazidir"[22], - deydi.

Xalq baxshilarining tarixan jangchi bo'lganliklarini baxshilarning doston ijro etishlari ham tasdiqlaydi. Masalan, o'tgan asrning 30-yillarida Islom shoirning ijrochiligiga ko'p marta guvoh bo'lgan Bektosh Rahimov shunday deb yozadi: "Islom shoir biror terma va dostonni aytishdan oldin do'mbirasini obdan sozlar, so'ng ko'zlarini xiyol yumib, ancha paytgacha do'mbirasining kuyida tebranib o'tirar, so'ngra albatta: "Hey-hu-huy-y, hu-y-y!" - deb na'ra tortardi-da, gavdasiga mos baland ovozda, boshlagan narsasini bir o'tirishda aytib tamomlardir"[23].

Aytish mumkinki, terma va dostonlar ijrosidan avval do'mbira chertib, Islom shoirdek na'ra tortish barcha o'zbek dostonchilari uchun qonuniyat bo'lgan. Bu holat qadimda jangchi-baxshilarning jangga kirish oldidagi jangovar hayqirig'ining dostonchilikda saqlanib qolgan keyingi ifodasidir. Demak, professional xalq dostonchilari, termachilarining yana bir tarixiy tipi jangchi - shomondir.

Xorazm dostonchiligida, ayniqsa, "Oshiq" turkumi namunalari professional ijodkorning baxshi-oshiq tipi obrazi ko'proq saqlanib qolgan. Professional dostonchi va termachilarning yana bir tarixiy tipini diniy doston va terma kuylovchilar tashkil etgan.

**Xulosa.** Tarixiy nuqtayi nazaridan, dostonchilik va xalq baxshilarining tiplari, ustoz-shogirdlik munosabatlari orqali juda qadim zamonga, mifologik tafakkur davriga aloqador bo'lib, asosan, ularning kelib chiqish tarixini ibtidoiy kishilarning mehnati va mehnat bilan bog'liq marosimlarga borib taqaladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Qayumov O. Chet el adabiyoti tarixi.-Toshkent: O'qituvchi, 1973. - 300 b.
2. Razzoqov.H. To'ra Mirzayev. Sobirov O, Imomov K. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi.T.,1980. Baxshi. O'zME.1-tom. 653 bet.
3. Ro'zimboyev S. Xorazm dostonlari. Toshkent, 1985. 32-bet.
4. Mirzayev T. Folklor ijodkorlari va ijrochilari// O'zbek folklori ocherklari. 1-j. Toshkent, 1988. 12,18-betlar.
5. Бакиров М. Труд – материальная основа древнейшей поэзии //Генезис и древнейшие формы общетюркской поэзии. АДД. Казань, 1999. – С. 10-12.
6. Sarimsoqov B. Mehnat qo'shiqlari//O'zbek folklori ocherklari. 1-j. 224-bet.
7. Sarimsoqov B. Mehnat qo'shiqlari//O'zbek folklori ocherklari. 1-j. 225-bet.
8. Тайлор Э.Б. Первобытная культура. М., 1989.
9. Mirzayev T. Folklor ijodkorlari va ijrochilari. - B. 22.
10. Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. М., 1947. - С. 139.
11. Жирмунский В.М. Сравнительное литературоведение. Востоки Запад. Л., 1979. - С. 397-398.
12. Mirzayev T. Folklor ijodkorlari va ijrochilari. 14.
13. Sarimsoqov B. O'zbek marosim folklori. Toshkent, 1986.
14. Sarimsoqov B. O'zbek marosim folklori. Toshkent, 1986. - B. 186.
15. Bulbul taronalari. Besh jildlik. 1-j. Toshkent, 1973. - B. 302.
16. Islomova M. Otam haqida // Islom shoir zamondoshlari xotirasida. Toshkent, 1981. - B. 89.
17. Фрэзер Дж.Дж. Золотая ветвь: Исследование магии и религии. - С. 111.
18. Жирмунский В.М. Легенда о призвании певца // Сравнительное литературоведение. Восток и Запад. - С. 397-407.
19. Жирмунский В.М. Легенда о призвании певца // Сравнительное литературоведение. Восток и Запад. - С. 403.